

SO'FI OLLOYORNING ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLARINING QIYOSIY TAXLILI

Kotibov Rustamxon Bositxon o'g'li

Namangan davlat universiteti erkin tadqiqotchisi:

Ilmiy rahbar: Ismoilov Temurbek Islomovich

Anotatsiya: Ushbu maqolada So'fi Olloyorning asarlarida pedagogic qarashlarining qiyosiy taxlili va insoniy kamolot bilan bog'liq g'oyalarini targ'ib va tashviq qilish.

Kalit so'zlar: Inson mohiyati, uning hayotdagi o'rni, ilohiy tartib asosiga qurilgan borliq bilan insonning o'zaro munosabati.

So'fi Olloyor bobomiz ko'plab ilmlar bo'yicha yetuk olim hamda fors tilida ham, turkiy tilda ham mahorat bilan ijod etgan adiblardan hisoblanadi. Asarlarida bayon qilingan ma'lumotlarga ko'ra bu zot Shayx Habibulloh, So'fi Navro'z Buxoriy va Xo'ja Mo'min singari ustozlardan ta'lim olgan. So'fi Olloyor bobomizning ilm darajasi juda yuqori bo'lgani yozgan asarlaridan ham bilinib turadi.

So'fi Olloyorning yana bir mashhur asarlaridan biri «Sabot ul-ojizin»ning yaratilishidan asosiy maqsad komil insonni tarbiyalashdir. Asarda, inson komillikka erishishi uchun, avvalo e'tiqodli bo'lishi, Tangri taolani tanishi shariat man etgan ishlardan o'zini tiyishi, jamoat e'tiqodini hurmat qilishi, ma'rifatli bo'lmog'i, iymonli bo'lishi ta'kidlanadi. Nafsni poklash, ta'ma bilan erishilgan hamma narsa haromligi, ta'malik ovqatdan zahar, xayotdan o'lim afzalligi qayd qilinadi.

Asarda, inson va dunyo, insonlararo munosabat bosh masala hilib qo'yilgan yomonlik, takabburlik, shuhratparaslik, mansabparastlik, hasadgo'ylik, xiyonat kabi yomon illatlar qoralangan.

So'fi Olloyor ma'rifiy qarashlarining eng muhim jihatlardan biri shundaki, u komil insonni tarbiyalash, inson taqdiri, tarbiyasi bilan faqat mas'ul kishilargina emas, balki butun jamiyat shug'ullanishi lozim deb hisoblaydi. Chunki, yomonni to'g'ri yo'lga solishdagi loqaydlik butun odam zotiga xiyonatdir. Bu asar insonni pokiza hayot kechirishga tashviq etadi, jamiyatning har bir a'zosini diyonatli, vijdonli, insofli, adolatli, iymonli bo'lishga chorlaydi.

Umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash, insonning kamolotga yetishida ilmning qadrini juda yaxshi anglab, dunyoviy va diniy ilimlarni yaxshi o'zlashtirishga, saxiylik, ochiq chehralik bilan bir qatorda shirin so'zli bo'lishga chorlaydi.

So'fi Olloyor bobomizning turli mavzularga oid mashhur asarlari quyidagilardir:

1. **“Maslakul muttaqiyn”**. “Taqvodorlarning tutgan yo‘li” ma‘nosini anglatuvchi bu asar fors tilida bitilgan. Asarda Ahli sunna val jamoa aqidasi va fiqhiy masalalar hanafiya mazhabiga ko‘ra bayon etilgan. Ulamolara “Maslakul muttaqiyn”ni So‘fi Olloyor rahmatullohi alayhning eng salmoqli asari sifatida e‘tirof etganlar. She‘riy uslubda yozilgan ushbu asar yuzdan ortiq mo‘tabar kitoblar asosida ta‘lif etilgan bo‘lib, hajmi o‘n ikki ming baytdan ortiqdir. Tahqiqarlarga ko‘ra bu asar milodiy 1700-1701 yillar atrofida yozib tugallangan. “Maslakul muttaqiyn”ning toshbosma va qo‘lyozma nusxalari O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston va boshqa joylarga keng yoyilgan. “Maslakul muttaqiyn” asari o‘n to‘qqizinchi asrning ikkinchi yarimida Qo‘zixo‘ja Hafizxo‘ja o‘g‘li Turkistoniy tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Bu kitob 2007-yilda Sayfiddin Sayfulloh va Akrom Dehqonlar tomonidan nashrga tayorlanib chop etilgan.

2. **“Murodul orifiyn”**. “Oriflar murodi” ma‘nosini anglatuvchi bu asar ham fors tilida ta‘lif etilgan. Asar o‘n besh fasldan iborat bo‘lib, o‘ttizga yaqin risolalar asosida yozilgan. Asarda tasavvuf ilmiga taalluqli masalalar bayon qilingan. “Murodul orifiyn” asarining ko‘plab nusxalari bo‘lib, qo‘lyozma nusxalaridan biri O‘zbekiston musulmonlari idorasining kutubxonasida saqlanmoqda.

3. **“Maxzanul mutein”**. “Itoatkorlar zaxirasi” ma‘nosini anglatuvchi ushbu asar ham fors tilida yozilgan. Bu asar ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limda aqidaviy masalalar, ikkinchi bo‘limda fiqhiy masalalar bayon qilingan.

4. **“Sabotul ojiziyn”**. “Ojizlar matonati” ma‘nosini anglatuvchi ushbu asar aqoid ilmiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek tilida she‘riy uslubda yozilgan. Muallif bu asarni “Maslakul muttaqiyn”dan keyin yozgan. Fors tilida yozilgan “Maslakul muttaqiyn” asari yaxshi qabul qilinib, xalq orasida mashhur bo‘lib ketgach muallifning yaqin kishilari uni o‘zbek tiliga o‘girib berishini so‘rashadi. Bu haqida So‘fi Olloyor bobomizning o‘zi shunday yozgan:

Yozildi forsiy til birla maktub,
Aqiydatu furu‘ qurbi mahbub.

Ya‘ni mahbub zotga suyuqli bo‘lish majmuasi bo‘lgan aqida va undan kelib chiquvchi amaliy hukmlar avvalda fors tilida yozilgan edi.

“Sabotul-ojizin”da “Hazrat So‘fi Olloyor ilmi kalom va ilmi fiqhda zikr etilgan masalalarni tushunarli tarzda bayon etib, insonlarning e‘tiqodi, imoni, diyonatini mustahkamlashni, ularning o‘zligini va Xoliqni tanishlari bilan bog‘liq masalalardan so‘z yuritishni maqsad qilib qo‘yganlar va bu maqsadni muvaffaqiyat bilan amalga oshirganlar”

Xulosa: Ilmiy-ma‘rifiy asarlar kishiga islomiy ta‘limotdan saboq berishi bilan birga kishilarda estetik didni shakllantiradi, tarbiyalaydi. So‘fi Olloyor adabiy merosining salmoqdor bo‘lishi unda islomiy ta‘limot doirasidagi masalalarning xilma-xil va rang-barang qamrab olinishi bilan belgilanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin (Nashrga tayyorlovchilar: Hoji Po'latqori Muhammad Ali, Mahmud Hasaniy, Mirsolih Qosim). - Toshkent: Mehnat, 1991.
2. So'fi Olloyor. Risolai aziza "Sabot ul-ojizin sharhi" (Tuzuvchi: B.Hasan) - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashr, 2000.